

XORIJIY DAVLATLARDA (GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI MISOLIDA) YURIDIK XIZMAT FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.

Xashimov Ravshan Rayimjonovich
Farg‘ona viloyat yuridik texnikumi
“Mutaxassislik fanlari” kafedrasida
o‘qituvchisi, 3-darajali yurist.
Telefon: +998905857915
@ravshanxashimov7648

Annotatsiya: Maqolada xorijiy davlatlarda (Germaniya Federativ Respublikasi misolida) yuridik xizmat institutini huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *yuridik xizmat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, nizomlar, mansab yo‘riqnomalari, mehnat shartnomasi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются особенности правового регулирования института юридической службы в зарубежных странах (на примере ФРГ).*

Ключевые понятия: *юридическая служба, хозяйствующие субъекты, правосознание и правовая культура, уставы, должностные инструкции, трудовой договор.*

Abstract: *The article discusses the features of the legal regulation of the institute of legal service in foreign countries (on the example of Germany).*

Key concepts: *legal service, business entities, legal awareness and legal culture, charters, job descriptions, employment contract.*

O‘zbekiston Respublikasida yuridik xizmat tizimining oqilona tashkil etilganligi demokratik huquqiy davlatni barpo etishga, fuqarolik jamiyatini shakllantirishga, milliy qonunchiligimizni takomillashtirishga, ayni chog‘da jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga munosib xizmat qiladi.

Har bir davlat organida, har bir xo‘jalik yurituvchi subyektda yuridik xizmat huquqiy ishlarni amalga oshirilishini ta‘minlovchi alohida, mustaqil tuzilma sifatida mavjud bo‘lishi taqozo etiladi. Busiz huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati va bozor tizimi normal faoliyat ko‘rsata olmaydi.¹

¹ Otaxonov F.X. Yuridik xizmatning nazariy-huquqiy muammolari. Monografiya / Mas‘ul muharrir Toshqulov J.O‘. – T.: 2019. 84-b.

Xorijiy mamlakatlarning yuridik xizmat sohasidagi tajribasi, uning huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari xususida biz Germaniya Federativ Respublikasi tajribasiga e'tibor qaratishni ma'qul ko'rdik.

Germaniyada barcha davlat organlari va yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda (kompaniyalar, korxonalarda va hokazo) huquqiy ishlarni amalga oshirish uchun yuridik xizmat tashkil qilinadi. Yuridik xizmat davlat organlari va kompaniyalarning tarkibiy tuzilmasi hisoblanib, u - yuridik bo'lim, yuridik guruh, yuriskonsult shaklida tashkil qilinadi. Yuridik xizmatning huquqiy maqomi va faoliyati maxsus normativ-huquqiy hujjatlar bilan emas, balki davlat organlari va kompaniyalarning ichki hujjatlari (nizomlar, mansab yo'riqnomalari, mehnat shartnomasi) bilan tartibga solinadi. Lekin bu Germaniyada yuridik xizmatga oid umuman hech qanday normativ-huquqiy hujjat mavjud emas degan xulosaga kelish uchun asos bo'lmaydi. Chunki davlat organlari va kompaniyalar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, protsessual qonun hujjatlarida yuridik xizmat tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy ishlar va uning faoliyatiga oid boshqa normalar, davlat xizmatchilari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan.² Yuriskonsult lavozimiga universitetni bitirgan va birinchi imtihonni muvaffaqiyatli tugatgan yuristlar tayinlanadi.³ Yuridik bo'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: huquqiy masalalar bo'yicha kompaniya rahbarlari va mutaxassislariga maslahatlar berish; shartnomalarni (xo'jalik va mehnat shartnomalarini) tuzishda ishtirok etish va ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish; talabnoma ishlarini yuritish; sudlarda kompaniyaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun tegishli hujjatlar va materiallarni tayyorlash hamda ularni advokatlarga taqdim etish. Yuridik xizmat xodimlari ham advokat maqomini olishlari mumkin, ammo ular kompaniyada ishlayotgan paytida advokat sifatida faoliyat ko'rsata olmaydilar.

Germaniyada kompaniyalarning yuridik xizmat xodimlari bizning mamlakatimizdagidan farqli o'laroq, sudlarda kompaniya huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vakolatiga ega emaslar. Bu vazifani tegishli sudlarda qatnashish huquqiga ega bo'lgan advokatlarga amalga oshiradilar. Ammo, sud majlislari ochiq bo'lganligi sababli yuridik xizmat xodimlari ham barcha fuqarolar singari unda qatnashishlari mumkin. Advokatlarga kompaniya da'vogar bo'lganda da'vo arizalarini

² Закон о федеральных чиновниках от 14 июля 1953 года в новой редакции от 27 февраля 1985 г.; Рамочный закон о праве чиновников от 1 июля 1957 года в новой редакции от 27 февраля 1985 г.; Закон об окладах федеральных служащих от 27 июля 1957 года в редакции 3 декабря 1998 года, Положение о прохождении государственной службы в Федерации от 15 ноября 1978 г. в новой редакции от 8 марта 1990 г.; Федеральный дисциплинарный устав от 20 июля 1967 года. Электронный ресурс. Режим доступа: <http://www.legislation.ru>, свободный.

³ Мавланов К. 2021. Состояние обеспеченности право на защиту лица, подозреваемого в совершении преступления в законодательстве некоторых развитых зарубежных стран. Общество и инновации. 2, 1/S (фев. 2021), 96–103. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss1/S-pp96-103>.

yoki javobgar bo'lganda da'vo arizasiga yuzasidan fikrnomalarni yozish va ularga ilova qilish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va materiallarni kompaniya yuridik xizmati tayyorlab beradi.

Advokatlarning kasbiy huquq va majburiyatlari 1959 yil 1 avgustda qabul qilingan Federal advokatura to'g'risidagi Nizom⁴ bilan tartibga solinadi. Qonun kuchiga ega bo'lgan mazkur Nizomga 1994 yil 2 sentyabrdagi tuzatishlar bilan jiddiy o'zgartirishlar kiritilgan.

Germaniyada fuqarolik protsessi advokatning majburiy ravishdagi ishtiroki yoki uning ishtirokisiz amalga oshiriladi. Germaniya FPKning⁵ 78-§ muvofiq okrug (landgerixt) va boshqa barcha yuqori instansiya sudlarida taraflar advokat orqali o'z manfaatlarini himoya qilishlari mumkin. Agar taraflar advokat orqali vakillik qilishi majburiy bo'lmagan hollarda, nizo sudda taraflarning o'zi yoki fuqarolik protsessual muomala layoqatiga ega bo'lgan har qanday shaxsni vakil qilish orqali ko'rib chiqilishi mumkin. Demak, bunday hollarda vakil sifatida kompaniyaning yuridik xizmat xodimi ishtirok etishi mumkin bo'ladi.⁶

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillarga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xorijiy mamlakatlarning yuridik xizmat ko'rsatishga oid tajribasini o'rganish mamlakatimizda yuridik xizmat faoliyatining tashkiliy-huquqiy tomonlarini rivojlantirishda, uning huquqiy asoslarini yana-da takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. 21.12.1995 y. <https://lex.uz/docs/111189>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 19 yanvardagi PQ-2733-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3098964>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021 yil 29 iyundagi PQ-5168-son qarori. <https://lex.uz/docs/5482934>
5. Закон о федеральных чиновниках от 14 июля 1953 года в новой редакции от 27 февраля 1985 г.; Рамочный закон о праве чиновников от 1 июля 1957 года в новой редакции от 27 февраля 1985 г., Закон об окладах федеральных служащих от 27 июля 1957 года в редакции 3 декабря 1998 года, Положение

⁴ Давтян А.Г. Гражданское процессуальное право Германии.– М.: Городец-издат, 2000. – С. 22.

⁵ Давтян А.Г. Гражданское процессуальное право Германии. – М.: Городец-издат, 2000. – С.23; Жалинский А., Рёрихт А. Введение в немецкое право.– М.: Спрак, 2001.– С.518-541; Правовая система Федеративной Республики Германии. – Бонн, 1996. –27 с.

⁶ Qandimov E. Germaniya: advokatura tizimi // Inson va qonun. – 2002. – 22 sentyabr.

о прохождении государственной службы в Федерации от 15 ноября 1978 г. в новой редакции от 8 марта 1990 г.; Федеральный дисциплинарный устав от 20 июля 1967 года. Электронный ресурс. Режим доступа:<http://www.legislature.ru>, свободный.

6. Otaxonov F.X. Yuridik xizmatning nazariy-huquqiy muammolari. Monografiya / Mas'ul muharrir Toshqulov J.O'. – T.: 2019. 84-b.
7. Мавланов К. 2021. Состояние обеспеченности право на защиту лица, подозреваемого в совершении преступления в законодательстве некоторых развитых зарубежных стран. Общество и инновации. 2, 1/S (фев. 2021), 96–103. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss1/S-pp96-103>.
8. Давтян А.Г. Гражданское процессуальное право Германии.– М.: Городец-издат, 2000. – С. 22.
9. Давтян А.Г. Гражданское процессуальное право Германии. – М.: Городец-издат, 2000. – С.23; Жалинский А., Рёрихт А. Введение в немецкое право.– М.: Спрак, 2001.– С.518-541; Правовая система Федеративной Республики Германии. – Бонн, 1996. –27 с.
10. Qandimov E. Germaniya: advokatura tizimi // Inson va qonun. – 2002. – 22 sentyabr.